

AYOLLARDA HOMILADORLIKNI DASTLABKI OYLARIDA ANIQLASH

To'layev Bobur Zoyir o'g'li

Samarqand davlat tibbiyot universiteti talabasi

Subxonova Zarnigor Sultonbek qizi

Samarqand davlat tibbiyot universiteti

Suyunova Muxlisa Olimjon qizi

Samarqand davlat tibbiyot universiteti

***Annotatsiya:** Maqolaning mazmuni homiladorlikning belgilari, alomatlari haqida uning qanday namoyon bo'lishi hamma ayollarda biroz yoki tubdan farq qilishi mumkin. Ba'zi ayollarda homiladorlikni ko'rsatadigan dastlabki belgilar mavjud bo'lsa, ba'zilarida hech qanday o'zgarish sezmaydilar. Tuxum hujayra urug'langanidan keyin ayol organizmida qator gormonal o'zgarishlar kuzatiladi. Quyida organizmdagi gormonal o'zgarishlar ta'sirida yuzaga kelayotgan o'zgarishlar haqida to'xtalib o'tamiz.*

***Kalit so'zlar:** bosh og'rig'i, implantatsiya, yetuk homiladorlik, allergik sezuvchanlik, toshmalar, ko'ngil aynishi, tanadagi shishlar.*

Ayol tuxundoni urug'langandan so'ng bachadonda joylashishni boshlaydi. Bu jarayon implantatsiya deb ataladi. Aynan shu davrda (1-2 kun) qindan oz miqdorda qonli ajralma kuzatilishi mumkin. Ular hayz davomidagi ajralmalardan rangi, davomiyligi va miqdori bilan tubdan farq qiladi. Rangi ochroq, davomiyligi qisqaroq va miqdori juda oz bo'ladi. Bu vaqtda hayz kelishi kuzatilmaydi. Biroq hayzning kechikishiga ishonchli belgi sifatida qaralmasligi kerak, chunki hayz ko'rishning

yo'qligi ko'pincha reproduktiv tizim kasalliklari, stress va gormomal patologik o'zgarishlar bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

Homiladorlining belgilari: Sut bezlarining kattalashishi va og'riqli bo'lishi kuzatiladi. Homiladorlik yuzaga kelganida ayol organizmida juda ko'p gormonal o'zgarishlar yuzaga keladi. Sut bezlari esa gormonal o'zgaruvchanlikka juda sezgir bo'ladi. Lekin ko'krakning kattalashishi homiladorlikka qarshi ichiladigan gormonal dori vositalar tufayli ham vujudga kelishi mumkinligini ham yoddan chiqar, asligimiz lozim. Homilador ayolning ko'krak bezlarida butun homiladorlik davri davomida o'ziga xos o'zgarishlar bo'ladi. O'zgarishlar homiladorlikning ilk belgilari sifatida namoyon bo'lishidan boshlab, toki tug'uruqqa qadar yangi tug'ilajak chaqaloqni to'laqonli ozuqa bilan ta'minlash darajasiga yetguniga qadar davom etadi. Ko'krakdagi bu o'zgarishlarga yumshoqlik va noqulaylik kiradi. Ko'krakning yumshoqligi bu ko'pincha homiladorlikning dastlabki belgilaridan biridir. Bu o'zgarishlar qondagi gormonlar darajasining ko'tarilishi va ko'krak to'qimalarida qon aylanishining yaxshilanishi tufayli yuzaga keladi. Homilador bo'lganda, ayniqsa, birinchi homiladorlik paytida bir yoki ikki o'lchamda ko'krak hajmining oshishi bu odatiy holdir. Bu holat homiladorlikning dastlabki davridan boshlanishi mumkin va bu butun davr mobaynida davom etishi mumkin. Ko'krakning tez o'sishi uning terisining cho'zilishiga va va qichishishiga olib keladi. Farzand tug'ilganidan keyin ham ko'krak kattalashishda davom etishi mumkin. Homiladorlik davrida qon hajmi 50 % ga oshadi. Buning oqibatida ko'krak va oshqozon sohasida yiriklashgan tomirlar, qon va ozuqa moddalarni tanadagi rivojlanayotgan homilaga yetkazib berish uchun zarur. Bundan tashqari areolalar rangi to'qlashadi, so'rg'ichlardan suyuqlik oqishi, ko'krak shishi ham shular jumlasiga kiradi. Shish ba'zi homiladorlarga ta'sir qiladi, bu shishlar tashvishlanish uchun sabab bo'lmaydi.

Charchoq va uyquchanlik, tezda holsizlanish, ba'zilar yig'loqi bo'lib qolishi ham ko'p yuzaga keladigan holat. Bu belgi ko'pincha birinchi yordamga keladi. Organizmda modda almashinuv jarayonlarining kuchayishi va tez charchoq hissi,

uyquchanlik hamda hordiq olish istagi paydo bo'lishiga olib keladi. Keyinchalik birinchi trimestrdagi uyquchanlik keyingi trimestrlarda uyqusizlik bilan almashinadi.

Ko'ngil aynishi yoki toksikoz paydo bo'lishi ko'pincha homilaning 5-6 haftaligidan boshlanadi, ba'zi ayollarda esa bu simptom urug'langandan so'ng, ya'ni 2-3 haftada ham kuzatilishi mumkin. Toksikoz homiladorlikning umumiy belgisi bo'lib, ko'ngil aynishiva ba'zi ba'zida qayt qilishi bilan ajralib turadi. Toksikoz odatda ertalabki ko'ngil aynishi bilan bir qatorda kunning istalgan vaqtida ham xuddi shu belgilar bilan homilador ayolga turli noqulayliklar tug'dirishi mumkin. Homiladorlikda ko'ngil aynishi va qusish odatda homilaga zarar yetkazmaydi. Ko'ngil aynishi natijasida ba'zan qayt qilish ham yuzaga kelishi mumkin tabiiyki bu o'z vaqtida organism suv balansuning kamayishiga olib keladi. Shuning uchun homilador ayollarimizda ovqatlanish oralig'ida tez-tez suv ichish tavsiya etiladi. Gazlanmagan mineral suv yoki limonli choy ko'ngil aynishini yengishiga va yo'qolgan suyuqlik o'rminin to'ldirishga yordamlashadi. Toksikoz bilan kurashayotgan homilador ayollar uchun toza havoda sayr qilish ham yaxshi natija beradi. Bunda yurish paytida homilador ayol va homilaning qoni kislorod bilan yaxshi to'yinadi va qon aylanishi yaxshilanadi. Qo'shimcha ravishda homiladorlik vaqtida ta'm va hidga ta'sirchan bo'lib qolishlari va bu ko'ngil aynishi, bosh og'rig'i, va allergik reaksiyalarni qo'zg'ashi mumkin.

Homiladorlikning dastlabki belgisi sifatida yana ayolda odatdagidan ko'ra tez-tez kichik hojatga ehtiyoj yuzaga kelishini kuzatish mumkin. Homiladorlik paytida tanadagi qon miqdori ortib boradi, bu homilador ayolning buyraklariga tushadigan qo'shimcha suyuqlikni qayta ishlashga olib keladi. Bu esa o'z-o'zidan peshob ajralishining oshishiga olib keladi.

Bundan atshqari qo'shimcha ravishda quyidagi o'zgarishlar ham yuzaga keladi.

Homiladorlikning belgilari sifatida bazal tempraturaning ortishi

Progestron gormonning ko'plab ishlab chiqarilishi natijasida tana harorati 37 gradusgacha ko'tarilishi mumkin.

Chanoq sohasida og'irlik hissini sezish, ya'ni chanoq sohasida qon aylanishi ortishi hisobiga yuzaga keladi.

Uyqusizlik – charchash hissi ko'pincha asab qo'zg'aluvchanligiga olib kelishi natijasida uyqusizlik kuzatilishi mumkin.

Belda og'riq sezish- bel sohasida simillovchi og'riqlarni sezish mumkin. Ammo buyrak kasalliklarida ham og'riq kuzatilishini unutmasligimiz lozim.

Bosh og'rig'i-gormonal o'zgarishlar asab tizimiga ta'sir qilganligi sababli bosh og'rig'i kuzatilishi mumkin.

Bosh aylanishi va hushidan ketish. Bu qon tomirlarning kengayishi, qon bosimining pasayishi va qonda qand miqdorining kamayishi bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

Ishtahaning ochilishi – moddalar almashinuvi va tezlashuvi sababli ishtaha ochiladi.

Hid bilish va ta'm bilishning kuchayishi- oldinlari hidlarga nisbatan sezgirliги past bo'lsa yoki ahamiyat bermagan bo'lsa, homiladorlikda sezgirliги ortadi.

Qo'zg'aluvchanlik va kayfiyatning o'zgarishi- ko'pchilik ayollar jahldor va kayfiyati tez-tez o'zgarib turuvchi bo'lib qolishadi

Tana va yuzning o'zgarishi-ayol organizmi homilani ozuqa bilan ta'minlab berishi uchun tana vazni ortishi kuzatiladi.

Yuz, qo'l va oyoqlarning shishi- homiladorlikda organizm ko'proq suyuqlik ushlab qolishga harakat qiladi. Shu sababdan ha yuz, qo'l va oyoqlarda turli darajadagi shishlar kuzatiladi.

Yuzdagi har xil toshmalar- ayol oldinlari terisi bilan hech qanday muammolar bo'lmagan bo'lsada, homiladorlikda yuzda husnbuzarlar toshadi. Bu organizmdagi gormonal o'zgaruvchanli bilan ta'riflanadi.

Qorin dam bo'lishi va qabziyat-gormonlarning ichakka ta'siri natijasida ichaklarda metiorizm kuzatiladi.

Qorinning oq chizig'ida pigmentatsiyaning buzilishi- homilador ayollar uchun harakterli bo'lgan simptom kindikdan qov simfizigacha bo'lgan "yo'lakcha" paydo bo'ladi.

Adabiyotlar va manbalar:

1. Akusherlik amaliyoti A. A Qodirova. M. H. Kattaxo'jayeva, D. Q. Najmiddinova, V, E Ashurova
2. Early human development 89 (5) 277-281, 2013/ Milca Jeric, Damir Roje, Nina Medic, Tomislav Strinic, Zoran Mestrovic, Marco Vulic.
3. СУБЕРЛЕНИНКА Назимова А. Ф. Красникова Марина Борисовна. Трубина Татьяна Борисовна, Трубин Владимир Борисович
4. М. И. Кахиани ЖУРНАЛ АКУШЕРСТВА и ЖЕНСКИХ БОЛЕЗНЕЙ
5. ВОРОНЦОВ И. М./ Материалы 2-го Российского форума « мат и дитя»- М.. 1994- С 242-243
6. Доценко В. А. Эколого-гигиеническая концепция питания человека/ Дщценко В. А. Гигиена и санитария.